

O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTE TARIXDAN

Ismoilova Maqsuda Bog'bek qizi

Navoiy Davlat Universiteti tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimining tarixiy rivojlanishi, O'zbekistonda shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Mahalla institutining fuqarolarning bevosita ishtirokini ta'minlash, jamiyat barqarorligini mustahkamlash, madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash va ijtimoiy himoya vazifalaridagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar fikri asosida mahalla O'zbekistonning noyob demokratik instituti sifatida baholangan*

Kalit so'zlar: *Mahalla, mahalliy boshqaruv, o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyati, O'zbekiston, demokratik institut, mahalla kengashi, mahalla rahbariyati, mahalliy institut, jamoatchilik nazorati, mahalla tarixiy rivojlanishi, mahalliy organlar, "yettilik" tizimi, ijtimoiy yordam, bandlik, jamiyat barqarorligi, demokratik boshqaruv, mahalla qadriyatlari.*

Ozini o'zi boshqarish atamasi Angliyada XVII asr oxirida paydo bo'lgan. Ingliz inqilobidan so'ng fuqarolarning parlament va mahalliy vakillik organlari orqali o'zini o'zi boshqarishi - mahalliy o'zini o'zi boshqaruv deb yuritila boshlandi. Fransiyada bu tushuncha Buyuk fransuz inqilobi davrida ilk bor qo'llanildi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish shakllari davlatning siyosiy, huquqiy, tarixiy va demografik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, mahalliy jamoalarning aksariyat muammolarini hal qilishga xizmat qiladi. Siyosatshunoslar G. Xollis va K. Plokkerning fikricha, mahalliy o'zini o'zi boshqarish - milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birlik bo'lib, u mahalliy aholi manfaatlari asosida jamoatchilik muammolarini muvofiqlashtiradi. 1985 yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Xartiyada mahalliy organlar davlat ishlarining aksariyat qismini qonunlar doirasida o'z mas'ulligida boshqarishi belgilangan.

O'zbekistonda 1990-yillarda davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish va zamonaviylashtirish natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rivojlantirildi. Mahalla atamasi arabcha bo'lib, "o'rin-joy" degan ma'noni bildiradi, turli mintaqalarda esa guzar, jamoa, elat va elod nomlari bilan atalgan. Mahalla O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birlik sifatida xalqimiz an'analari va qadriyatlariga mos shaklda shakllangan bo'lib, tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Masalan, Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda 1100 yil avval bir qancha mahallalar mavjud bo'lganini qayd etadi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezident Islom Karimovning 1992-1999 yillardagi farmon va qonunlari mahalla faoliyatini qayta tashkil etib, uning vakolatlarini kengaytirdi. 1993 yilda “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil etildi va shu davrda “Mahalla” gazetasi chiqa boshladi. 1998 yilda mahalla rahbariyatining ish haqi oshirildi, pensioner raislarga pensiya to‘liq berildi. 2003 yilda “Obod mahalla yili” e‘lon qilinib, Vazirlar Mahkamasi dasturlar orqali mahalla nufuzini oshirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirdi. Shu jarayonlar mahallani fuqarolarning mustaqil faoliyati va jamiyatdagi ishtirokini ta‘minlovchi muhim institutga aylantirdi.

Mahalla kichik ma‘muriy hudud bo‘lishiga qaramay, turmush tarzi, qadriyatlar va an‘analar umumiyliigi bilan bog‘langan kishilar jamoasidir. Uning asosiy vazifalari hududni obodonlashtirish, marosimlarni birgalikda o‘tkazish, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyat tartibini saqlash va urf-odatlariga rioya qilinishini nazorat qilishdan iborat. Mahalla kengashi rais, o‘rinbosar, kotib va tajribali maslahatchilardan tashkil topib, jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish, turar joy fondlarini boshqarish va turli ijtimoiy tadbirlarni tashkil qiladi.

Mahalla subyekti uning boshqaruv funksiyasi orqali samarali faoliyat ko‘rsatadi. Har bir mahalla o‘ziga xos geografik joylashuv va turmush tarziga ega bo‘lib, aholi tarkibiga mos ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini ishlab chiqadi. Mahalla tizimi demokratik institut sifatida jamiyatni boshqarishda erkin va ixtiyoriy ishtirokni ta‘minlaydi.

Oqsoqollar va rahbarlar aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro ekspertlar ta‘kidlaganidek, o‘zbek mahallasi Sharq va G‘arbdagi boshqa mamlakatlardagi o‘zini o‘zi boshqarish modellardan tubdan farq qiladigan noyob demokratik institutdir. Mahalla milliy an‘ana va madaniyatni asrab-avaylash, jamiyat barqarorligini ta‘minlash va demokratiyaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan u nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham o‘rganishga arziydigan institut hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 14-oktyabr kuni mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. So‘nggi yillarda mahalla institutini isloh qilish, uni xalq hayotiga yaqin va samarali tizimga aylantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, mahallalarda “yettilik” tizimi joriy etilib, kredit, subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ortiq xizmatlar mahalla darajasiga tushirildi, natijada 7,5 million fuqaro kambag‘allikdan chiqdi, ishsizlik darajasi 2 barobar qisqardi hamda 3,5 ming mahalla zamonaviy qiyofaga keltirildi. Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilib, ular boshchiligidagi “yettilik”ning vertikal tizimi yaratildi, yetarli sharoit, resurs va vakolatlar berildi. Mahalladagi har bir imkoniyatni loyihaga aylantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish maqsadida mahallalarga bankir va soliqchilar birlashtirildi, infratuzilmani rivojlantirish uchun alohida mablag‘lar ajratilmoqda. Davlatimiz rahbari bu imkoniyatlardan samarali

foydalanib, aniq natija ko‘rsatayotgan mahallalar ko‘pligini, biroq ayrim mahallalar hali yagona jamoa bo‘lib ishlashni to‘liq o‘rganmaganini ta’kidladi.

Xulosa: Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi, xususan O‘zbekistondagi mahalla instituti, fuqarolarning bevosita ishtirokini ta’minlash, jamiyat barqarorligini mustahkamlash va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla o‘ziga xos tarkibi va tarixiy ildizlari bilan boshqa mamlakatlardagi o‘zini o‘zi boshqarish modellardan farq qiladi va noyob demokratik institut sifatida baholanadi. Shu bilan u fuqarolarning salohiyatini oshirish va jamiyat manfaatlarini muvozanatlashda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ozbekiston XXI asr bosagasida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «Ozbekiston», 1997y.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. Toshkent, 1997 y
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoshma majlisidagi maruza. 2010 y. 12 noyabr
4. Oila-mahalla-talim muassasasi hamkorlik mexanizmini kuchaytirish boyicha chora-tadbirlar Majmuasi. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 y. 19 iyundagi Qarori
5. Mahalla: o‘zini o‘zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me‘yoriy hujjatlar to‘plami), T., 1999.
6. “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘grisida”gi Qonuni. T.: 1999 y, 14-aprel.